

KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHNING MAZMUNI, MOHIYATI VA NAZARIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Samiyev Mirkamol Amridin o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Mustaqil izlanuvchisi

Tel.: +998 91 526 44 46

Annotatsiya. Mazkur maqolada kambag'allikni kamaytirishning mazmuni, mohiyati va nazariy rivojlanish tendensiyalari tadqiq etilgan. Kambag'allik tushunchasining iqtisodiy tafakkur rivojlanishi jarayonidagi evolyutsiyasi, uning daromad yetishmasligi, resurslardan foydalanish cheklanganligi, nisbiy mahrumlik va inson imkoniyatlarining cheklanishi bilan bog'liq jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda A. Smit, T. Maltus, D. Rikardo, A. Sen, P. Townsend, M. Todaro va S. Smith kabi olimlarning nazariy qarashlari hamda Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturining zamonaviy yondashuvlari umumlashtirilgan. Shuningdek, kambag'allikni baholashda monetar va ko'p o'lchovli yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. O'zbekiston misolida kambag'allikni kamaytirishda bandlik, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, inson kapitaliga investitsiyalar va manzilli ijtimoiy himoyaning ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijasida kambag'allikni barqaror qisqartirishning asosiy sharti aholining nafaqat daromadlarini oshirish, balki ularning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, kambag'allikni kamaytirish, kambag'allik nazariyasi, ko'p o'lchovli kambag'allik, daromadlar, ijtimoiy himoya, bandlik, inson kapitali, iqtisodiy o'sish, inklyuziv rivojlanish, ijtimoiy tengsizlik, O'zbekiston.

KIRISH

Bugungi kunda kambag'allikni kamaytirish masalasi jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, iqtisodiy transformatsiya, texnologik taraqqiyot va mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar aholining turli qatlamlari o'rtasidagi daromadlar tafovutining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli kambag'allikni faqatgina aholining daromadlari yetishmasligi bilan bog'liq holat sifatida emas, balki insonning munosib hayot kechirishi, ta'lim olishi, tibbiy xizmatlardan foydalanishi, barqaror bandlikka ega bo'lishi va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida tadqiq etish zarur.

Kambag'allik tushunchasining mazmuni va mohiyatiga nisbatan ilmiy qarashlar uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan. Dastlab kambag'allik asosan moddiy ne'matlar va daromadlarning yetishmasligi nuqtayi nazaridan baholangan bo'lsa, keyinchalik uning ijtimoiy, institutsional va inson kapitali bilan bog'liq jihatlari ham tadqiqotlarning muhim obyektiga aylandi. Xususan, zamonaviy yondashuvlarda

kambag'allik insonning mavjud resurslardan, ta'lim va tibbiy xizmatlardan, munosib mehnat sharoitlaridan hamda jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlardan to'laonli foydalanish imkoniyatining cheklanganligi bilan izohlanadi. Bu esa kambag'allikni baholashda faqat pul daromadlari emas, balki hayot sifati va inson farovonligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan ham foydalanishni taqozo etadi.

Kambag'allikni kamaytirishning nazariy asoslari iqtisodiy rivojlanish nazariyalari, inson kapitali konsepsiyasi, ijtimoiy farovonlik nazariyasi hamda imkoniyatlar yondashuvi doirasida bosqichma-bosqich rivojlangan. Ayniqsa, A.Sen tomonidan ilgari surilgan imkoniyatlar yondashuvi kambag'allikni insonning faqat daromadlari bilan emas, balki muayyan hayot tarzini tanlash va amalga oshirish imkoniyatlari bilan baholash zarurligini asoslab berdi. Mazkur yondashuv kambag'allikni kamaytirish siyosatini daromadlarni oshirish bilan bir qatorda ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya va infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirish uchun nazariy asos yaratdi.

Hozirgi sharoitda kambag'allikni kamaytirishning samaradorligi iqtisodiy o'sish sur'atlari bilangina belgilanmaydi. Iqtisodiy o'sish natijalarining aholining turli ijtimoiy guruhlari o'rtasida qanday taqsimlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, mehnat unumdorligining oshishi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarning mavjudligi va ijtimoiy xizmatlarning ommabopligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, kambag'allikni kamaytirish siyosati iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional mexanizmlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlashga asoslangan kompleks yondashuvni talab qiladi.

O'zbekistonda ham kambag'allikni qisqartirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib, aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini kengaytirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'qitish, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish kabi yo'nalishlar bilan chambarchas bog'lanmoqda. Ayniqsa, kambag'allikni hududlar, mahallalar va alohida ijtimoiy guruhlar kesimida aniqlash hamda mavjud muammolarga manzilli yondashish uning sabablarini chuqur o'rganish va samarali choralarni ishlab chiqish zaruratini oshirmoqda.

Shu sababli kambag'allikni kamaytirishning mazmuni va mohiyatini nazariy jihatdan tadqiq etish, uning evolyutsion rivojlanish bosqichlarini tizimlashtirish hamda zamonaviy yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqolada kambag'allik tushunchasining nazariy talqinlari, uning iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati, kambag'allikni baholashga oid yondashuvlarning rivojlanishi hamda uni kamaytirish mexanizmlarining zamonaviy tendensiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish maqsad qilib olingan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag'allikni kamaytirishning mazmuni, mohiyati va nazariy rivojlanish tendensiyalarini o'rganish iqtisodiy fikr tarixida shakllangan turli ilmiy yondashuvlarni tizimli ravishda tahlil qilishni talab etadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda kambag'allikning kelib chiqish sabablari, uni baholash mezonlari, daromadlar taqsimoti, inson kapitali, bandlik, ijtimoiy himoya hamda iqtisodiy o'sishning

kambag'allikka ta'siri kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kambag'allikning dastlabki iqtisodiy talqinlari klassik iqtisodiy maktab vakillarining qarashlarida o'z aksini topgan. Choi G.S., Storr V.H. kabi olimlar A.Smitning mehnat unumdorligi, daromadlarning shakllanishi va jamiyatdagi iqtisodiy farovonlik masalalarini tadqiq etar ekan, aholining turmush darajasini jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'lagan [1]. P.Shaffer esa aholi sonining o'sishi va mavjud resurslar o'rtasidagi nisbatni tahlil qilib, kambag'allikning demografik va iqtisodiy omillariga e'tibor qaratgan [2]. A.Seeds tadqiqotlarida esa daromadlarning taqsimlanishi, ish haqi va renta o'rtasidagi munosabatlar kambag'allikni tushuntirishning muhim elementlaridan biri sifatida qaralgan [3].

Keyingi davrlarda kambag'allik masalasiga nisbatan institutsional va ijtimoiy yondashuvlar rivojlandi. Kambag'allikning faqat daromad yetishmasligi emas, balki insonning jamiyatdagi mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasi bilan bog'liqligi haqidagi qarashlar shakllandi. Ushbu yondashuv kambag'allikni ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, uy-joy, ijtimoiy infratuzilma va boshqa hayotiy ehtiyojlar bilan bog'liq kompleks hodisa sifatida tadqiq etish imkonini berdi.

Zamonaviy kambag'allik nazariyasining rivojlanishida A.Senning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Olim kambag'allikni insonning daromadlari yoki moddiy resurslari yetishmasligi bilangina cheklab qo'ymasdan, uning muayyan hayot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarining cheklanganligi orqali baholashni taklif etgan [4]. Imkoniyatlar yondashuvi kambag'allikni ko'p o'lchovli hodisa sifatida ko'rishga asos yaratib, inson salohiyatini rivojlantirishni kambag'allikni qisqartirishning muhim sharti sifatida belgilaydi.

P.Towsend tomonidan ishlab chiqilgan nisbiy kambag'allik konsepsiyasida esa insonning turmush darajasi jamiyatdagi umumiy farovonlik darajasi bilan taqqoslanadi [5]. Mazkur yondashuvga ko'ra, shaxs yoki oila jamiyatda odatiy hisoblangan turmush tarzida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, u kambag'allik holatida bo'lishi mumkin. Bu yondashuv kambag'allikni faqat minimal iste'mol darajasi bilan emas, balki ijtimoiy integratsiya va munosib hayot kechirish imkoniyati bilan bog'lashga xizmat qiladi.

M.Todaro va S.Smit kabi rivojlanish iqtisodiyoti tadqiqotchilari kambag'allikni rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot, bandlik va daromadlar taqsimoti bilan bog'liq holda o'rgangan [6]. Ularning qarashlarida iqtisodiy o'sishning o'zi kambag'allikni avtomatik tarzda bartaraf etmasligi, buning uchun iqtisodiy imkoniyatlarning aholining keng qatlamlariga yetib borishini ta'minlash zarurligi asoslanadi. Shu jihatdan, kambag'allikni kamaytirish siyosatida "inklyuziv iqtisodiy o'sish" tamoyili muhim nazariy va amaliy yo'nalish sifatida shakllangan.

Jahon banki tadqiqotlarida kambag'allikni o'lchash va kamaytirish masalalari keng qamrovda tadqiq etilib, mutlaq kambag'allik, xalqaro kambag'allik chegarasi, daromad va iste'mol ko'rsatkichlari bilan bir qatorda inson farovonligining boshqa jihatlariga ham e'tibor qaratiladi [7]. Jahon bankining zamonaviy yondashuvlarida kambag'allikni kamaytirish barqaror iqtisodiy o'sish, inson kapitaliga investitsiyalar, mehnat bozorida imkoniyatlarni kengaytirish va samarali ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish bilan uzviy bog'liq holda qaraladi.

BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan ilgari surilgan ko'p o'lchovli kambag'allik konsepsiyasi ham mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan [8]. Ushbu yondashuv kambag'allikni daromad bilan cheklanmagan holda ta'lim, sog'liqni saqlash, yashash sharoiti va boshqa muhim ijtimoiy ko'rsatkichlar orqali baholash imkonini beradi. Ko'p o'lchovli yondashuvning afzalligi shundaki, u kambag'allikning turli shakllarini aniqlash va aholining ehtiyojmand qatlamlari uchun manzilli siyosat choralari ishlab chiqishga imkon yaratadi.

O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham aholining daromadlarini oshirish, bandlikni ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, inson kapitalini shakllantirish, hududiy rivojlanish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Mahalliy olimlarimizdan biri G.G.Bazarovanning tadqiqotlarida kambag'allikni qisqartirishda oilalarning iqtisodiy faolligini oshirish, kasb-hunarga o'qitish, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish va kichik biznesni rivojlantirish muhim omillar sifatida ko'rsatiladi [9].

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan kambag'allik muammosi asosan aholi daromadlari, turmush darajasi, ijtimoiy tabaqalanish, bandlik va davlatning ijtimoiy siyosati bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Xususan, V.N.Bobkov Rossiya aholisining turmush darajasi va kambag'allik darajasini baholash masalalarini keng tadqiq qilgan olimlardan biridir [10]. Uning ishlarida kambag'allikni baholashda aholining daromadlari bilan bir qatorda iste'mol imkoniyatlari, turmush sharoiti va ijtimoiy standartlardan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olish zarurligi asoslanadi. Bobkovning yondashuvi kambag'allikni faqat monetar ko'rsatkichlar asosida emas, balki aholining real turmush darajasi orqali baholashga imkon beradi.

N.M.Rimashevskaya tadqiqotlarida aholining ijtimoiy tabaqalanishi, daromadlar tengsizligi va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik masalalariga katta e'tibor qaratilgan [11]. Uning ilmiy qarashlarida kambag'allikni jamiyatdagi iqtisodiy tengsizlikdan ajratib o'rganish qiyinligi ko'rsatiladi. Daromadlar taqsimotidagi keskin tafovutlar kambag'allikning ayrim guruhlar orasida takror ishlab chiqarilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu jihatdan kambag'allikni kamaytirish siyosati daromadlar tengsizligini yumshatish va ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirish choralari ham qamrab olishi lozim.

MDH iqtisodiy adabiyotlarida L.N.Ovcharovanning kambag'allik va ijtimoiy siyosatga oid tadqiqotlari ham alohida o'rin egallaydi [12]. Olimaning ishlarida kambag'allikni o'lchash, kambag'allik guruhlarining tarkibi, ijtimoiy transferlarning kambag'allikni kamaytirishdagi roli va davlat ijtimoiy siyosatining samaradorligi o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar kambag'allikni kamaytirish siyosatida aholining turli guruhlar uchun differensial yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

T.I.Zaslavskayaning ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalarga oid tadqiqotlari kambag'allik muammosini institutsional o'zgarishlar bilan bog'lash imkonini beradi [13]. Uning ilmiy yondashuvlaridan kelib chiqib, kambag'allikni individual daromad yetishmovchiligi sifatida emas, balki iqtisodiy institutlar, bandlik munosabatlari va jamiyatdagi ijtimoiy imkoniyatlar bilan bog'liq tizimli hodisa sifatida talqin qilish mumkin.

MDH olimlaridan A.G. Aganbegyan iqtisodiy o'sish, aholi turmush darajasi va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilgan [14]. Uning qarashlari kambag'allikni kamaytirishning makroiqtisodiy asoslarini tushuntirishda muhimdir. Ya'ni kambag'allikni barqaror kamaytirish uchun iqtisodiy o'sishning o'zi yetarli bo'lmasdan, uning natijalari aholi daromadlari, bandlik va ijtimoiy xizmatlarga real kirish imkoniyatlariga aylanishi lozim.

O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida kambag'allik masalasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi daromadlarini oshirish, bandlikni ta'minlash, hududiy rivojlanish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari bilan bog'liq holda o'rganilmoqda.

A.Vahobov va N.Jumayevning makroiqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy siyosatga oid ilmiy ishlarida iqtisodiy o'sish, aholi daromadlari, davlat moliyasi va ijtimoiy himoya o'rtasidagi bog'liqlik masalalari tahlil qilinadi [15]. Mazkur qarashlar kambag'allikni kamaytirish siyosatini makroiqtisodiy barqarorlik va davlatning ijtimoiy siyosati bilan bog'liq holda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili kambag'allik tushunchasining evolyutsiyasi "daromad yetishmasligi" yondashuvidan "imkoniyatlarning cheklanganligi" va "ko'p o'lchovli kambag'allik" konsepsiyasiga tomon rivojlanganligini ko'rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlarda kambag'allikni kamaytirishning samarali mexanizmi sifatida iqtisodiy o'sish, munosib bandlik, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy himoya, tadbirkorlik va hududiy imkoniyatlardan kompleks foydalanish zarurligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida kambag'allikning hududiy, institutsional va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda uni kamaytirishning integratsiyalashgan mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi yetarlicha chuqur tadqiq etilishi lozim bo'lgan ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi kambag'allikning mazmuni va mohiyatini nazariy jihatdan ochib berish, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillarni aniqlash hamda kambag'allikni kamaytirishning zamonaviy nazariy yondashuvlari va rivojlanish tendensiyalarini tizimli ravishda tadqiq etishga asoslandi. Tadqiqotda kambag'allik faqat aholi daromadlarining yetishmasligi sifatida emas, balki insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional imkoniyatlarning cheklanganligi bilan tavsiflanadigan ko'p o'lchovli hodisa sifatida qaraldi.

Tadqiqotning obyekti sifatida kambag'allikning shakllanishi, rivojlanishi va kamayish jarayonlari, predmeti sifatida esa kambag'allikning iqtisodiy-ijtimoiy mazmuni, uni baholash mezonlari, nazariy yondashuvlari va kamaytirish mexanizmlari bilan bog'liq munosabatlar belgilandi.

Tadqiqot tizimli, kompleks va evolyutsion yondashuvlar asosida olib borildi. Tizimli yondashuv kambag'allikni daromad, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy, ijtimoiy himoya va inson kapitali kabi omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi tizimli hodisa sifatida o'rganish imkonini berdi. Kompleks yondashuv orqali kambag'allikning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlari birgalikda

baholandi. Evolyutsion yondashuv asosida esa kambag'allik haqidagi ilmiy qarashlarning vaqt davomida rivojlanishi va zamonaviy konsepsiyalarning shakllanishi tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini kambag'allikni tushuntiruvchi klassik, neoklassik, institutsional, inson kapitali, imkoniyatlar (capability approach), ko'p o'lchovli kambag'allik va barqaror rivojlanish yondashuvlari tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar asosida kambag'allik tushunchasining mazmuni va mohiyati turli ilmiy maktablar nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda ma'lumotlarni yig'ishda ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanish asosiy o'rin egalladi. Bunda xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, rasmiy statistik hisobotlar, davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar va kambag'allikni baholashga oid metodik materiallar o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarning kambag'allikni kamaytirish bo'yicha tajribasini ifodalovchi statistik va analitik ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda kambag'allikni baholashning mutlaq, nisbiy va ko'p o'lchovli yondashuvlari o'zaro taqqoslandi. Mutlaq kambag'allik yondashuvida insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan minimal daromad yoki iste'mol darajasi hisobga olindi. Nisbiy kambag'allik yondashuvida aholining daromad yoki iste'mol darajasi jamiyatdagi o'rtacha yoki median ko'rsatkichlarga nisbatan baholandi. Ko'p o'lchovli yondashuvda esa daromaddan tashqari ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlar hisobga olindi.

Tadqiqotda kambag'allikning nazariy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun ilmiy adabiyotlarni kontent-tahlil qilish usulidan foydalanildi. Turli davrlarda yaratilgan ilmiy ishlar o'rganilib, ularda kambag'allikka berilgan ta'riflar, uning sabablari, baholash mezonlari va kamaytirish mexanizmlari tizimlashtirildi. Natijada kambag'allikni tushuntirishdagi nazariy qarashlarning evolyutsiyasi aniqlanib, ularning o'ziga xos xususiyatlari qiyoslandi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

tizimli tahlil – kambag'allikni shakllantiruvchi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarning o'zaro bog'liqligini aniqlash;

qiyosiy tahlil – turli nazariy maktablarning kambag'allik haqidagi qarashlarini taqqoslash;

tarixiy-evolyutsion tahlil – kambag'allik tushunchasi va uni baholash metodologiyasining rivojlanishini o'rganish;

kontent-tahlil – ilmiy adabiyotlarda kambag'allik tushunchasining talqinlarini tizimlashtirish;

statistik tahlil – kambag'allik darajasi va unga bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasini baholash;

guruhlash usuli – kambag'allik shakllari va uni yuzaga keltiruvchi omillarni guruhlash;

indeks usuli – kambag'allikning ko'p o'lchovli jihatlarini kompleks baholash;

korrelyatsion tahlil – kambag'allik darajasi bilan bandlik, daromad, ta'lim va

boshqa omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;

trend tahlili – kambag'allik darajasining vaqt bo'yicha o'zgarish yo'nalishlarini aniqlash;

ekspert baholash usuli – kambag'allikni kamaytirishning asosiy omillari va samarali mexanizmlariga mutaxassislar bahosini aniqlash.

Kambag'allikni kamaytirishga ta'sir etuvchi omillar iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional guruhlariga ajratildi. Iqtisodiy omillarga aholi daromadlari, bandlik, ish haqi, tadbirkorlik imkoniyatlari, investitsiyalar va iqtisodiy o'sish; ijtimoiy omillarga ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, uy-joy va inson kapitali; institutsional omillarga davlat siyosati, ijtimoiy dasturlar, hududiy rivojlanish siyosati va kambag'allikni aniqlash hamda monitoring qilish mexanizmlari kiritildi.

Kambag'allikning rivojlanish tendensiyasini baholashda dinamik qatorlar va trend tahlilidan foydalanildi. Bunda kambag'allik darajasi, aholi daromadlari, bandlik darajasi, ishsizlik, o'rtacha ish haqi, ijtimoiy transfertlar va boshqa ko'rsatkichlarning yillar kesimidagi o'zgarishi tahlil qilindi. Mazkur ko'rsatkichlarning o'sish yoki kamayish tendensiyalari kambag'allikni qisqartirish jarayonining asosiy yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allikni kamaytirishning mazmuni va mohiyatini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur tushuncha iqtisodiy tafakkur rivojlanishi bilan birga sezilarli darajada transformatsiyalangan. Dastlab kambag'allik asosan daromad va moddiy resurslarning yetishmasligi bilan izohlangan bo'lsa, zamonaviy ilmiy yondashuvlarda u insonning ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, uy-joy, infratuzilma va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish darajasi bilan ham baholanmoqda. Shu sababli kambag'allikni kamaytirish jarayonini faqat aholining daromadlarini oshirishga qaratilgan siyosat sifatida emas, balki inson farovonligini kompleks ravishda yaxshilash jarayoni sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Tadqiqot davomida kambag'allik nazariyasining rivojlanishini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda kambag'allik moddiy resurslar va daromadlarning yetishmasligi bilan izohlangan. Ikkinchi bosqichda nisbiy kambag'allik, daromadlar tengsizligi va jamiyatdagi ijtimoiy mavqedan mahrumlik masalalari asosiy o'ringa chiqdi. Uchinchi, zamonaviy bosqichda esa kambag'allik ko'p o'lchovli hodisa sifatida qaralib, insonning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional imkoniyatlari bilan bog'liq holda baholanmoqda.

1-jadval

Kambag'allikni tushunishning nazariy evolyutsiyasi

Nazariy yondashuv	Asosiy mazmuni	Kambag'allikni kamaytirishning ustuvor yo'nalishi
Moddiy-daromad yondashuvi	Daromad va iste'mol imkoniyatlarining yetishmasligi	Daromadlarni oshirish
Resurslar yondashuvi	Ish, kapital, yer va boshqa iqtisodiy resurslardan foydalanishning	Bandlik va resurslarga kirishni kengaytirish

	cheklanganligi	
Nisbiy kambag'allik	Jamiyatdagi o'rtacha turmush darajasidan sezilarli darajada ortda qolish	Tengsizlikni kamaytirish
Imkoniyatlar yondashuvi	Insonning munosib hayot kechirish imkoniyatlarining cheklanganligi	Inson kapitalini rivojlantirish
Ko'p o'lchovli yondashuv	Daromad bilan birga ta'lim, sog'liq, uy-joy, infratuzilma va boshqa mahrumliklar	Kompleks ijtimoiy-iqtisodiy siyosat
Inklyuziv rivojlanish yondashuvi	Iqtisodiy o'sish natijalarining aholining kambag'al qatlamlariga yetib borishi	Ish o'rinlari, tadbirkorlik va ijtimoiy himoya
Barqaror rivojlanish yondashuvi	Kambag'allik, tengsizlik va ekologik xavflarning o'zaro bog'liqligi	Yashil va inklyuziv iqtisodiy o'sish

1-jadvaldan ko'rinadiki, kambag'allikni kamaytirishning zamonaviy konsepsiyasi an'anaviy "daromadni oshirish" modelidan ancha kengroq mazmun kasb etmoqda. Xususan, Jahon bankining 2024-yilgi tadqiqotida global kambag'allikni kamaytirish sur'atlari sezilarli sekinlashgani, kambag'allikni qisqartirish uchun esa tezroq va inklyuziv iqtisodiy o'sish, ko'proq va sifatli ish o'rinlari, ta'lim, infratuzilma va asosiy xizmatlarga investitsiyalar zarurligi ta'kidlangan.

Tahlil natijalari kambag'allik darajasiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bandlik va mehnat daromadlari ekanligini ko'rsatadi. Chunki doimiy va munosib daromad manbaining mavjudligi oilaning iste'mol imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga ta'lim, sog'liqni saqlash va uy-joy sharoitlariga investitsiya qilish imkonini ham oshiradi. Shu jihatdan kambag'allikni kamaytirish siyosatida faqat nafaqalar va moddiy yordamga tayanishdan ko'ra, aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berish samaraliroq hisoblanadi.

Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha 2025-yilgi tahlili ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Milliy kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17,0 foizdan 2024-yilda 8,9 foizgacha pasaygan. 2024-yilda kambag'allikning qisqarishiga ish haqi bilan bir qatorda biznes va qishloq xo'jaligi daromadlarining o'sishi hamda bandlik darajasining oshishi sezilarli hissa qo'shgan.

Jahon banki ma'lumotlari asosida O'zbekiston misolida kambag'allik dinamikasini quyidagicha ifodalash mumkin:

2-jadval

O'zbekistonda kambag'allik darajasining o'zgarish dinamikasi

Yil	Milliy kambag'allik darajasi, %	Oldingi davrga nisbatan o'zgarish, %
2021	17,0	—
2022	14,1	-2,9
2023	11,0	-3,1
2024	8,9	-2,1
2025	5,8	-3,1

Ushbu ko'rsatkichlar 2021-2025-yillarda O'zbekistonda milliy kambag'allik darajasi 11,2 foiz punktga, ya'ni qariyb uchdan ikki qismga qisqarganini ko'rsatadi. Biroq kambag'allikning qisqarishi uning barcha shakllari to'liq bartaraf etilganini anglatmaydi. Aholining ayrim guruhlar daromadlarining barqarorligi, sifatli bandlik,

hududlararo tafovutlar va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Kambag'allikni faqat monetar ko'rsatkich orqali baholashning cheklanganligini ko'p o'lchovli kambag'allik ko'rsatkichlari ham namoyon etadi. UNDPning 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2021/2022-yillardagi so'rov ma'lumotlari asosida aholining 1,7 foizi ko'p o'lchovli kambag'al, yana 0,2 foizi esa ko'p o'lchovli kambag'allikka nisbatan zaif guruh sifatida baholangan. Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi 0,006 ni tashkil etgan.

Bu natija muhim metodologik xulosaga olib keladi: monetar kambag'allik va ko'p o'lchovli kambag'allik bir xil hodisa emas. Masalan, aholining daromadi kambag'allik chegarasidan yuqori bo'lishi mumkin, biroq u sifatli tibbiy xizmat, ta'lim, infratuzilma yoki munosib uy-joydan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi sababli boshqa o'lchovlarda mahrumlikka duch kelishi mumkin. Shu sababli kambag'allikni kamaytirish siyosatida ikkala yondashuvni birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq.

UNDPning 2024-yilgi Global Multidimensional Poverty Index tadqiqotida ham kambag'allikning turli o'lchovlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilinib, kambag'allik va ijtimoiy zaiflikni baholashda daromad ko'rsatkichlaridan tashqari ta'lim, sog'liq va turmush sharoitlarini hisobga olish zarurligi ko'rsatilgan.

Agar iqtisodiy o'sish daromadlar tengsizligining kuchayishi bilan kechsa yoki yangi ish o'rinlari asosan past daromadli va norasmiy bandlik shaklida yaratilsa, uning kambag'allikni kamaytirishdagi samarasi cheklanishi mumkin. Jahon banki ham o'rtacha daromadlarning o'sishi kambag'allikni qisqartirish uchun o'z-o'zidan yetarli emasligini, iqtisodiy o'sishning inklyuzivligi muhim ekanini ta'kidlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kambag'allikni kamaytirishning uzoq muddatli samaradorligi inson kapitali bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yaxshilanishi aholining yuqori daromadli va samarali mehnat faoliyatiga kirish imkoniyatini oshiradi. Shu sababli kambag'allikni qisqartirish siyosatida qisqa muddatli ijtimoiy yordam choralari uzoq muddatli ta'lim, kasbga tayyorlash va bandlik dasturlari bilan uyg'unlashtirish zarur.

Umumlashtirib aytganda, tadqiqot natijalari kambag'allikni kamaytirishning samarali modeli quyidagi besh asosiy yo'nalishdan tashkil topishini ko'rsatadi:

1. Barqaror iqtisodiy o'sish – yangi iqtisodiy imkoniyatlar va daromad manbalarini yaratish;
2. Sifatli va munosib bandlik – aholining barqaror mehnat daromadlarini ta'minlash;
3. Inson kapitalini rivojlantirish – ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy malakani oshirish;
4. Manzilli ijtimoiy himoya – eng ehtiyojmand guruhlarini samarali qo'llab-quvvatlash;
5. Ko'p o'lchovli monitoring – kambag'allikni daromad bilan bir qatorda ijtimoiy va infratuzilmaviy mezonlar asosida baholash.

Demak, tahlil natijalari kambag'allikni kamaytirishning zamonaviy mazmuni

“kam daromadli aholini qo‘llab-quvvatlash”dan “aholining barqaror daromad yaratish imkoniyatlarini kengaytirish”ga o‘tib borayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston tajribasi ham kambag‘allik darajasining sezilarli pasayishi iqtisodiy faollik, ish haqi, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi daromadlari va bandlikning yaxshilanishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, kelgusida kambag‘allikni yanada qisqartirish uchun monetar ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ko‘p o‘lchovli kambag‘allik, ijtimoiy zaiflik va daromadlar barqarorligini muntazam monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA

Kambag‘allik masalasi iqtisodiy fanlarning eng uzoq vaqt davomida o‘rganib kelinayotgan muammolaridan biri bo‘lib, uning mazmuni va mohiyati jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi bilan birga takomillashib borgan. Dastlab kambag‘allik asosan insonning asosiy fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan daromad va moddiy resurslarning yetishmasligi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, zamonaviy iqtisodiy nazariyada ushbu tushuncha ancha keng mazmun kasb etdi.

Klassik iqtisodiy qarashlarda kambag‘allik, avvalo, daromad va iste‘mol imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlangan. Keyinchalik sanoatlashuv, urbanizatsiya va mehnat bozorining rivojlanishi natijasida kambag‘allikning sabablarini faqat individual daromad bilan izohlash yetarli emasligi namoyon bo‘ldi. Aholining ta‘lim olish, tibbiy xizmatlardan foydalanish, barqaror ish bilan ta‘minlanish va munosib yashash sharoitlariga ega bo‘lish imkoniyatlari ham kambag‘allikni belgilovchi muhim omillarga aylandi.

Bu jihatdan A. Senning imkoniyatlar yondashuvi kambag‘allik nazariyasining rivojlanishida muhim burilish yasadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, insonning kambag‘alligi faqat uning qancha daromad olishi bilan emas, balki ushbu daromad orqali qanday imkoniyatlarga ega bo‘la olishi bilan belgilanadi. Masalan, bir xil daromadga ega bo‘lgan ikki insondan biri sifatli ta‘lim, tibbiyot va transport xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ikkinchisida bunday imkoniyatlar mavjud bo‘lmasligi ularning real farovonlik darajasi turlicha ekanligini anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari kambag‘allikni kamaytirish siyosatini faqat aholining daromadlarini oshirishga yo‘naltirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Daromadni oshirish kambag‘allikni kamaytirishning zarur sharti bo‘lsa-da, uning barqaror yechimi inson imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq.

Zamonaviy yondashuvlarda kambag‘allikning ko‘p o‘lchovli tabiati tobora ko‘proq e‘tirof etilmoqda. Bunda kambag‘allik daromad, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, bandlik, asosiy infratuzilma va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish kabi bir nechta o‘lchovlar orqali baholanadi. Bunday yondashuv kambag‘allikning haqiqiy ko‘lamini aniqlash imkonini beradi.

Masalan, oila daromadi minimal darajadan biroz yuqori bo‘lishi mumkin, biroq uning yashash joyida sifatli ichimlik suvi, tibbiy xizmat yoki ta‘lim imkoniyatlari mavjud bo‘lmasa, ushbu oilaning ijtimoiy-iqtisodiy zaifligi saqlanib qoladi. Shu sababli kambag‘allikni kamaytirish dasturlarida daromad + xizmatlardan foydalanish + infratuzilma + bandlik ko‘rsatkichlarini birgalikda hisobga olish maqsadga muvofiq.

Muhokama natijalari kambag'allikning muhim sabablaridan biri mehnat bozoridagi zaiflik ekanligini ko'rsatadi. Doimiy va munosib daromad keltiruvchi ish o'rning mavjud emasligi aholini kambag'allik xavfiga olib keladi. Ayniqsa, norasmiy bandlik, mavsumiy ish, mehnat unumdorligining pastligi va malaka yetishmasligi kambag'allikning takroran yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu sababli kambag'allikni kamaytirish siyosatida faqat nafaqa va moddiy yordam mexanizmlaridan foydalanish emas, balki munosib bandlik yaratish ustuvor yo'nalishga aylanishi lozim. Aholini kasb-hunarga o'qitish, qayta tayyorlash, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ko'nikmalarni shakllantirish va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish kambag'allikning uzoq muddatli qisqarishiga xizmat qiladi.

Bu jarayonda inson kapitaliga investitsiyalar alohida ahamiyatga ega. Ta'lim darajasi yuqori bo'lgan aholi odatda yuqori mehnat unumdorligi va yuqoriroq daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois ta'limni kambag'allikni kamaytirishning uzoq muddatli mexanizmi sifatida baholash mumkin. Ayniqsa, kasbiy ta'lim, raqamli ko'nikmalar, tadbirkorlik kompetensiyalari va zamonaviy mutaxassisliklarga tayyorlash kambag'allikdan chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kambag'allikni kamaytirishda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish ham muhim omil hisoblanadi. Kichik biznes yangi ish o'rinlari yaratish, aholining daromadlarini diversifikatsiya qilish va mahalliy iqtisodiy faollikni oshirish imkonini beradi. Shu sababli kambag'allikni kamaytirish dasturlarini mikromoliyalashtirish, imtiyozli kredit, biznes ko'nikmalarini shakllantirish, marketing va raqamli savdo imkoniyatlari bilan birlashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvning ahamiyati yanada yuqori. Chunki kambag'allikni kamaytirish masalasi hududlarning iqtisodiy salohiyati, bandlik imkoniyatlari, qishloq va shahar o'rtasidagi tafovutlar, infratuzilma darajasi va aholi tadbirkorlik faolligi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli mamlakat miqyosida yagona yondashuv bilan bir qatorda hududiy differentsiallashtirilgan kambag'allikni kamaytirish siyosatini qo'llash zarur.

Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlar kambag'allikni kamaytirish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Iqtisodiy faolligi yuqori bo'lgan hududlarda yangi ish o'rinlari va xizmatlar bozori tezroq shakllansa, iqtisodiy faolligi past hududlarda davlat ko'magiga ehtiyoj nisbatan yuqori bo'lishi mumkin. Shuning uchun kambag'allikni kamaytirish dasturlarini hududning mehnat resurslari, tabiiy resurslari, tadbirkorlik salohiyati, infratuzilmasi va bozor imkoniyatlari bilan bog'lash lozim.

Muhokama jarayonida kambag'allikni kamaytirishning passiv va aktiv mexanizmlarini farqlash muhim. Passiv mexanizmlarga nafaqa, moddiy yordam va boshqa ijtimoiy transfertlar kirs, aktiv mexanizmlarga bandlikni ta'minlash, kasbiy ta'lim, tadbirkorlikni rivojlantirish, mikromoliyalashtirish va mehnat unumdorligini oshirish kiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari kambag'allikni kamaytirish masalasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Kambag'allik tushunchasining nazariy evolyutsiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur

hodisaga bo'lgan ilmiy yondashuv dastlab daromad va moddiy resurslarning yetishmasligi bilan bog'langan bo'lsa, hozirgi davrda insonning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, uy-joy sharoiti va asosiy infratuzilmadan foydalanish darajasini ham qamrab oluvchi ko'p o'lchovli tushunchaga aylangan.

Tadqiqot davomida A.Smit, T.Maltus, D.Rikardo, A.Sen, P.Townsend, M.Todaro va S.Smith kabi olimlarning nazariy qarashlari hamda Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturining zamonaviy metodologik yondashuvlari umumlashtirildi. Natijada kambag'allikni faqat aholining daromadlari pastligi bilan izohlash yetarli emasligi, uning shakllanishida bandlik, inson kapitali, daromadlar taqsimoti, ijtimoiy himoya, hududiy rivojlanish va iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish darajasi ham muhim rol o'ynashi aniqlandi.

O'zbekiston tajribasi tahlili kambag'allikni kamaytirishda iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish va manzilli ijtimoiy himoya choralari o'zaro uyg'unligi muhim ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, kambag'allikni mahalla va hududlar kesimida aniqlash hamda ehtiyojmand oilalarning individual iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olish davlat siyosatining manzilliligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kambag'allikni qisqartirishning uzoq muddatli samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlarga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq: birinchidan, kambag'al va kambag'allik xavfi yuqori bo'lgan aholi uchun barqaror va munosib ish o'rinlarini yaratish; ikkinchidan, kasb-hunar va zamonaviy ko'nikmalarga o'qitish orqali inson kapitalini rivojlantirish; uchinchidan, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish; to'rtinchidan, ijtimoiy yordamning manzilliligi va samaradorligini oshirish; beshinchidan, kambag'allikni faqat daromad mezoni bilan emas, balki ko'p o'lchovli indikatorlar asosida muntazam baholab borish.

Shuningdek, kambag'allikni kamaytirish siyosatida iqtisodiy o'sishning o'zi yetarli emasligi, uning natijalari aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlariga ham yetib borishi zarurligi aniqlandi. Shu sababli iqtisodiy o'sish, bandlik, tadbirkorlik, inson kapitali va ijtimoiy himoyani yagona tizim sifatida shakllantirish kambag'allikni barqaror qisqartirishning muhim sharti hisoblanadi.

Umuman olganda, kambag'allikni kamaytirishning zamonaviy konsepsiyasi "daromad yetishmasligini bartaraf etish"dan "insonning munosib va barqaror hayot kechirish imkoniyatlarini kengaytirish"ga tomon rivojlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning kelgusi bosqichida iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, sifatli bandlikni ta'minlash, inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish va ko'p o'lchovli monitoring tizimini takomillashtirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Choi G.S., Storr V.H. Adam Smith on markets and their potential to benefit the poorest in society [Text]: scientific article // Constitutional Political Economy. – 2025.
2. Shaffer P. Immiserizing Growth Fails the Poor: Theory and Empirical Research

[Text]: monograph / Oxford University Press – Oxford.: Oxford University Press, 2024. – 280 p.

3. Steeds A. On land, life, and labour: Abundance and scarcity in Locke, Smith, and Ricardo [Text]: scientific article // Constellations. – 2024.

4. Sen A. Development as Freedom [Text]: monograph. – New York.: Alfred A. Knopf, 1999. – 384 p.

5. Townsend P. Poverty in the United Kingdom: A Survey of Household Resources and Standards of Living [Text]: monograph. – London.: Allen Lane and Penguin Books, 1979. – 1218 p.

6. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development [Text]: textbook. – Harlow.: Pearson Education, 2020.

7. World Bank. Poverty, Prosperity, and Planet Report 2024: Pathways Out of the Polycrisis [Text]: report / World Bank – Washington, DC.: World Bank, 2024.

8. UNDP, OPHI. Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report 2023 [Text]: report / United Nations Development Programme – Tashkent.: UNDP Uzbekistan, 2024.

9. Bazarova G.G. Economic and Social Reforms in Uzbekistan: Fighting Poverty [Text]: scientific article // Volume 2, Issue 9. – 2024.

10. Bobkov V.N. Бедность и социальная политика в России // Уровень жизни населения регионов России. – Москва.

11. Римашевская Н.М. Социально-экономическая дифференциация населения России // Народонаселение. – Москва.

12. Овчарова Л.Н. Бедность и неравенство в современной России: тенденции, проблемы, пути решения. – Москва: Дело.

13. Заславская Т.И. Современное российское общество: социальный механизм трансформации. – Москва: Дело.

14. Аганбегян А.Г. Социально-экономическое развитие России. – Москва.

15. Vahobov A.V., Jumayev N.J. Makroiqtisodiyot va makroiqtisodiy siyosatga oid ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent.